

**XORIJIY DAVLATLAR ELEKTRON HUKUMAT TIZIMINING ELEKTRON
IDENTIFIKATSIYA VA AVTORIZATSIYALASH INFRATUZILMASI TAHLILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886564>

Kipchakbaeva Gulayda Barliqbay qizi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nukus filiali, talaba*

Identifikatsiya va avtorizatsiya elektron hukumatning davlat organlari tomonidan qayta ishlangan axborot xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashning muhim elementlari hisoblanadi.

Identifikatsiya - bu foydalanuvchi yoki qurilmaning identifikatorini yig'ish va tekshirish orqali aniqlash jarayoni. Elektron hukumatda identifikatsiya turli usullar, jumladan login va parol, smart-kartalar, biometrik ma'lumotlar (masalan, barmoq izi skaneri) va boshqalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Avtorizatsiya - bu foydalanuvchi yoki qurilmaning ma'lum resurslar yoki funksiyalarga kirish huquqlarini tekshirish jarayoni. Avtorizatsiya odatda foydalanuvchi identifikatsiyasidan so'ng, tizim foydalanuvchi so'ralgan resurs yoki funksiyaga kirish huquqiga ega yoki yo'qligini aniqlagandan so'ng sodir bo'ladi.

Elektron hukumatda identifikatsiya va avtorizatsiya tizimlari davlat ma'lumotlari va fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun ishonchli va xavfsiz bo'lishi kerak. Shu bilan birga, ular foydalanuvchilar uchun qo'shimcha to'siqlar yaratmaslik uchun qulay va foydalanish uchun qulay bo'lishi kerak. Buning uchun identifikatsiyalash va avtorizatsiya qilishning turli usullaridan foydalanish mumkin, ular elektron hukumatning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilishi va qonunchilik va xavfsizlik standartlarini hisobga olishi kerak.

Evro Ittifoqning ko'pchilik davlatlari turlicha elektron identifikatsiyalash kartalaridan foydalanish loyixasini qo'llab, unda davlat bilan fuqarolar, biznes sub'ektlari va xususiy davlat xizmatchilari o'rtasida alohida muhitda foydalanish amalga oshiriladi. Bularga elektron identifikatsiyalash, sog'liqni saqlash xizmatlari uchun kartalar, shuningdek, elektron pasport bilan aloqasini o'rnatish, elektron raqamli imzo (Frantsiya, Vakolatli Sertifikatlash Proveyderi - Certification Service Providers - CSP), biometrik ma'lumotlar (Buyuk Britaniya, Milliy Identifikatsiya ma'lumotlar Registri - National Identity Register - NIR), shaxsiy raqamlar (Irlandiya, Davlat Xizmatlari uchun shaxsiy Raqam - Personal Public Service Number - PPSN) va h.k. kiradi. SHuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, identifikatsiyalash va kirishlarni amalga oshirish loyixalari foydalanuvchilarga nisbatan bir nechta usullari amalga oshirilishi mumkin.

Misol uchun Gollandiya milliy IT infratuzilmasida raqamli identifikatsiyalash (DigiD) da uch daraja qayd etiladi, ya'ni: boshlang'ich (foydalanuvchi nomi va paroli),

o'rtta (foydalanuvchi nomi, paroli va SMS tasdiq) va oliy (PKI (Public Key Infrastructure – Ochiq Kalitlar Infratuzilmasi) kartasi uchun raqamli sertifikat). SHuningdek, Gollandiyada fuqaro va bizes uchun noyob raqamlar foydalaniladi, ya'ni fuqarolarni ijtimoiy raqami (Citizen Service Number - CSN) va yuridik shaxslarni savdo palatasi raqami (Chamber of Commerce number - CCN). Birgina Ispaniyada loyixani amalga oshirishning bir yilida 9 mln identifikatsiyalash karta tadbiiq etilib, u kartalardan davlat xizmatlaridan foydalanish uch darajada, ya'ni davlatning markaziy, xududiy va o'zini boshqarish organlari uchun amalga oshiriladi.

Elektron pasportni birinchilardan bo'lib Germaniya 2005 yil noyabr oyidan tadbiiq eta boshladi. Elektron pasport chipli karta bo'lib, unda fuqaroning ismi-sharifi, tug'ilgan vaqti, yashash manzili, millati va raqamli fotoramsi, raqamli barmoq izlari va yuz shakli kabi ma'lumotlar shifrlangan holda saqlanadi. SHuningdek, bu mikrochip onlay yoki oflayn shaklda bo'lib, Fransiyada ular orqali davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Tibbiyot xizmatlari kartasini tarbiiq qilishni 2007 yilda Fransiya boshlab berdi. Bu kartalar (Vitale 2) IAS (Identification, Authentication & Signature - Identifikatsiya, autentifikatsiya va imzo) standartiga asoslangan bo'lib, unda keng kamrovli xayotiylik o'zgarishlari ma'lumotlari va tibbiyot xizmatlari uchun noyob raqam saqlanadi. Jumladan shaxsning biologik tavsiflari, elektron rasm va barmoq izlari, elektron retseplar, tashxiz natijalari va muolaja jarayonlari, kasallik alomatlari va tarixi, qabul qilingan dori vositalari, yo'llanmalar va turli izoxlar kabi ma'lumotlar kartaning 32 Kb xotirasida saqlanadi. Maxsus tibbiyyot dasturiy ilovalari yordamida karta ma'lumotlari bilan ishlashga tegishli shaxslarga (shifokor, tegishli boshqaruv organ) ruxsat etiladi.

Identifikatsiyalash tizimi va axborot tizimlarga Yagona nuqtadan kirishni Avstriya davlati Portal Group nomli infratuzilma elementini joriy qilishni boshlab bergan. Infratuzilmada Yagona nuqta orqali davlat xizmatchilari autentifikatsiya va autorizatsiya qilinib, tegishli axborot tizimlari va resurislarga kirishlari ta'minlanadi. SHu maqsadda ishlab chiqilgan Portal Group Protocol bayonnomasi HTTP (Internet standartining transport protokoli) va SOAP (markazlashmagan va taqsimlangan muhitda Web-xizmatiga murojaat protokoli) asosida xizmatchilarning davlat axborot tizimlaridan foydalanish uchun kirishlarni boshqarishni soddalashtirradi.

Buyuk Britaniyada davlat xizmatchilarini autentifikatsiya qilishda EAS (Employee Authentication Service) tizimi tadbiiq etilgan. Bu loyixa idoralararo axborot tizimlarining ommoviy ochiq xarakterda bo'lmagan ma'lumotlariga davlat xizmatchilarining kirishlarini amalga oshirib, Davlat SHlyuzining bir qismi hisoblanadi. CHunki, xududiy va o'zini boshqarish organlari xodimlari bir nuqta orqali autentifikatsiyadan o'tib, markaziy hukumatning yopiq tizimidan foydalanishlari mumkin.

Yil	Echakchi davlat		Rossiya		O'zbekiston	
	Davlat nomi	Indeks	O'rin	Inde	O'rin	Indeks
2008	SHvetsiya	0,915	60	0,51	109	0,4057
2010	Janubiy Koreya	0,878	59	0,51	87	0,4498
2012	Janubiy Koreya	0,928	27	0,73	91	0,5099
2014	Janubiy Koreya	0,946	27	0,72	100	0,4695
2016	Buyuk aniya	0,919	35	0,72	80	0,5434

Elektron hukumat va davlatning rivojlanish darajasi o'rtasida bevosita aloqalar mavjud. Davlat boshqaruvi tizimidagi barcha jarayonlarda fuqarolarning qatnashish darajasi ortganda, fuqarolar va davlat o'rtasidagi kundalik munosabatlar oshkora bo'lib, fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchi ortadi. Hozirda O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatlari ko'rsatish uchun sarflanadigan vaqt va xarajatlar yildan – yilga qisqartirilib borilmoqda, biznesni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaxshilanmoqda, bu esa iqtisodiy o'sishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aripov A.N. va boshqalar. Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Umumiy tushunchalar. Jahon tajribasi. O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. UNDP Digital Development Initiative Programme. // T.: 2005. 204 b.
2. Atadjanov D.Yu. va boshqalar. Elektron hukumat bo'yicha eslatma: O'zbekiston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha davlat organlarining asosiy vazifalari. Toshkent. 2016. 32 b.
3. Барбаков Г.О., Устинова О.В. К проблеме внедрения «Электронного правительства» Вестник Челябинского государственного университета №26(381), 2015. S.109-113.